

BULLING (TAZYIQ) NING KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR RUHIYATIGA TA'SIRI

Ergasheva Dilnozaxon Almasovna

Oltiariq tumani 38-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bulling (tazyiq)ning kichik maktab yoshidagi bolalar ruhiyatiga ta'siri, uning kelib chiqish sabablari hamda psixologik oqibatlari yoritilgan. Shuningdek, bullingning oldini olish va bartaraf etishda oila, maktab va psixologik xizmatning o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bulling, tazyiq, kichik maktab yoshi, ruhiy rivojlanish, psixologik salomatlik, zo'ravonlik, o'quvchi, profilaktika, psixologik yordam, ijtimoiy munosabatlar.

KIRISH

Kichik maktab yoshi bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch, muloqot ko'nikmalari va ijtimoiy munosabatlar faol rivojlanadi. Shu sababli tengdoshlar tomonidan ko'rsatiladigan tazyiq va zo'ravonlik holatlari bolaning ruhiy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bulling — bir yoki bir necha shaxs tomonidan boshqa bolaga nisbatan muntazam ravishda haqorat qilish, masxara qilish, qo'rqitish, kamsitish yoki jismoniy va ruhiy bosim o'tkazish orqali namoyon bo'ladigan salbiy xatti-harakatlar majmuasidir. Bulling jismoniy, og'zaki, ijtimoiy va kiber shakllarda uchrashi mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalar psixik jihatdan hali to'liq shakllanmaganligi sababli ular tazyiqni og'ir qabul qiladilar. Natijada qo'rquv, xavotir, tushkunlik va o'ziga nisbatan ishonchsizlik hissi paydo bo'lishi mumkin. Bu holatlar bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, maktab yoshidagi bolalarda mehnatsevarlik va muvaffaqiyatga erishish hissi shakllanadi. Bulling esa ushbu jarayonni izdan chiqarib, bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Bulling qurboni bo'lgan bolalarda o'quv faoliyatiga qiziqish kamayadi, darslarda faollik pasayadi

va maktabga borishga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi mumkin. Ayrim hollarda bu holat akademik ko'rsatkichlarning pasayishiga ham olib keladi.

Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bolalar atrofdagilarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali o'rganadilar. Shu sababli maktab va oilada ijobiy munosabatlar namunasini yaratish bullyingning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Bulling profilaktikasida maktab psixologining roli katta. Psixologlar tomonidan o'quvchilar bilan suhbatlar, treninglar va diagnostik tadbirlar o'tkazilishi bolalar o'rtasidagi salbiy munosabatlarni erta aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, empatiya va o'zaro hurmatni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar samarali natija beradi. Ko'p yillik tizimli nazorat tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Olveus dasturini qo'llash maktabda bullingga uchragan yoki uni sodir etgan o'quvchilar sonini 3050% ga qisqartirishga olib keladi.

Bulling profilaktika dasturlarining xalqaro tajribasini umumlashtirib, uchta asosiy profilaktika usullari guruhini ajratish mumkin:

1. Aniq bolalar va o'smirlarga qaratilgan usullar;
2. Oilaviy munosabatlarga qaratilgan usullar;
3. Bolaning yaqin atrofiga (mikrosotsium) qaratilgan usullar.

Yuqoridagi tajribalarga tayangan holda quyidagi asosiy yo'nalishlarni shakllantirish mumkin.

Ta'lim muassasasi darajasidagi ishlar yo'nalishlari: ta'lim muassasasining psixoemotsional muhitini diagnostika qilish va ma'muriyat bilan motivatsion tarbiyaviy ishlarni olib borish, ta'lim muassasasida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish dasturlari, maktab jamoasini birlashtirishga qaratilgan tadbirlar.

2. Pedagogik jamoa va ota-onalar bilan ish yo'nalishlari: Pedagoglar va ota-onalar bilan maslahat va ta'limiy ishlar, kattalar (ota-onalar, o'qituvchilar)ning psixologik-pedagogik kompetentligini oshirish dasturlari.

3. O'quvchilar bilan ishlash yo'nalishlari: Jazo olgan bolalar bilan maslahat va korreksiya ishlarini olib borish, o'quvchilar jamoasi bilan axborot-targ'ibot ishlari,

o'quvchilarning kommunikativ madaniyatini oshirish, o'smirlarning emotsional sohadagi cheklovlarini profilaktika qilish va to'g'rilash, maktab o'quvchilarining asotsial xulq-atvorini profilaktika qilish, stressga chidamlilik, muammolarda konstruktiv xulq-atvor va ishonchli xulq-atvor, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Bulling, bugungi kunda jiddiy pedagogik-psixologik muammo sifatida e'tirof etilmoqda. U nafaqat jabrlanuvchining, balki tajovuzkorning o'zi va guvohlarning ham psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bullingning oqibatlarini uzoq muddatli bo'lishi mumkin, jumladan, depressiya, xavotirlik, ijtimoiy izolyatsiya va o'z joniga qasd qilish kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Pedagoglar va psixologlar bullingni erta aniqlash, uning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyat olib borishlari zarur. Bu o'quvchilarda empatiya, hurmat va hamkorlik kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni, shuningdek, maktab muhitida xavfsizlik va qo'llabquvvatlashni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Bullingga qarshi kurashishda ota-onalarning, o'qituvchilarning va butun jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bulling holatlari haqida xabar berish, jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va tajovuzkorlarga yordam ko'rsatish orqali biz maktablarda xavfsiz va sog'lom muhit yaratishga hissa qo'shishimiz mumkin. Bullingga qarshi kurashish - bu doimiy va kompleks jarayon bo'lib, u barcha ishtirokchilarning sa'y-harakatlarini birlashtirishni talab qiladi. Faqatgina shunday yondashuv orqali biz bullingning salbiy oqibatlarini kamaytirishga va har bir o'quvchining o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga imkon beradigan muhit yaratishga erishishimiz mumkin.

Ota-onalar ham farzandlarining ruhiy holatiga e'tiborli bo'lishlari, ular bilan samimiy muloqot qilishlari va muammolarini tinglashlari zarur. Oiladagi mehr-muhit va qo'llab-quvvatlash bolaning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Mamalakatimizda sodir bo'layotgan mayda jinoyatchilik, bezorichilikni keltirib chiqayotgan sabablaridan biri bulling desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda maktab muassasalarida ijtimoiy muhitning sog'lom rivojlanishi ta'lim-tarbiya jarayonining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda bulling holatlari kuzatilishi, bu muammoning dolzarbligini oshirmoqda.

Kichik maktab yoshi — bu bolaning shaxsiyati shakllanishi uchun asos bo‘luvchi davr bo‘lib, bu bosqichda sodir bo‘ladigan har qanday zo‘ravonlik holati bolaga uzoq muddatli psixologik salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bullingga uchragan bola nafaqat psixologik zarba oladi, balki birgina zoravonlik oqibatida butun bir kelajagini barbot qilishi mumkin. Aynan shu jarayonni bartaraf etish uchun pedagog hamda maktab psixologlarini o‘rni katta hisoblanadi.

Bulling — bu bolalar o‘rtasida muntazam takrorlanadigan jismoniy, og‘zaki yoki psixologik zo‘ravonlik harakatlari bo‘lib, odatda, kuchliroq bola yoki guruh tomonidan zaifroq bola yoki guruhga nisbatan amalga oshiriladi. Kichik maktab yoshida bulling quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

1. Og‘zaki bulling: masxara qilish, laqab qo‘yish, haqoratli so‘zlar bilan murojaat qilish.

2. Ijtimoiy bulling: guruhdan ajratish, e‘tiborsizlik qilish, do‘st tutmaslik.

3. Jismoniy bulling: urish, itarish, buyumlarini olib qo‘yish yoki buzish.

4. Kiberbulling: kichik yoshdagilar o‘rtasida kamroq uchraydi, ammo internet tarmoqlaridan erta foydalanish natijasida bu holat ham kuzatilmoqda.

Bullingning sabablari:

Kichik maktab yoshidagi bolalar o‘rtasida bullingning yuzaga kelishiga quyidagi omillar sabab bo‘lishi mumkin:

- Oila muhitida zo‘ravonlik mavjudligi;
- Bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchsizligi yoki o‘ta tajovuzkorligi;
- O‘qituvchi yoki ota-onaning yetarli darajada e‘tibor bermasligi;
- Ijtimoiy tengsizlik va madaniy tafovutlar;
- Maktab muhitining nazoratsizligi yoki tartibsizligi.

Bullingni oldini olish yo‘llari;

Bulling holatlarining oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Psixologik monitoring olib borish – har bir o‘quvchining hissiy holati va ijtimoiy munosabatlari doimiy kuzatuvda bo‘lishi lozim.

O'qituvchilarning xabardorligini oshirish – pedagoglar bulling belgilarini erta aniqlash va unga to'g'ri munosabat bildirish bo'yicha malakaga ega bo'lishi zarur.

Sinf ichida do'stona muhit yaratish – jamoaviy o'yinlar, hamkorlikda bajariladigan topshiriqlar orqali bolalar o'rtasida hurmat va do'stlik hissini mustahkamlash. Ota-onalar bilan hamkorlik – uyda va maktabda bolaga nisbatan bir xil, ijobiy tarbiyaviy yondashuv bo'lishi lozim.

Axloqiy-ma'naviy tarbiya – darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali mehr-oqibat, bag'rikenglik, hurmat kabi qadriyatlarni shakllantirish.

Kichik maktab yoshidagi bolalar o'rtasida bullingni oldini olish nafaqat pedagoglarning, balki ota-onalar va jamiyatning umumiy mas'uliyatidir. Bu jarayonda eng muhim jihat — bolani tinglash, unga nisbatan e'tiborli bo'lish va har qanday ijtimoiy muammoni erta bosqichda hal etishdir. Bulling holatlarini erta aniqlash va unga qarshi tizimli ishlarni yo'lga qo'yish orqali sog'lom ijtimoiy maktab muhitini yaratish mumkin. Bulling oqibatida jabr chekayotgan bolalarni hayotga qaytarish, ularni menligini shakllantirish, o'z fikrini erkin bayon qilish, qobiliyatlarni shakllantirish bu pedagogning asosiy vazifasi hisoblanadi. Zero o'sib kelayotgan yosh avlodlarning kelajagi bizning qo'limizda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bullying kichik maktab yoshidagi bolalarning ruhiy rivojlanishiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga va ta'limdagi muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoning oldini olish uchun oila, maktab va psixologik xizmatlarning hamkorligi, shuningdek, sog'lom va xavfsiz ta'lim muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Nishonova Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Karimova V.M. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
5. Shoumarov G'.B. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2018.



6. Erik Erikson. Psixososial rivojlanish nazariyasi.
7. Albert Bandura. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi.